

## 49-§. LABORATORIYA ISHI. SHISHANING NUR SINDIRISH KO'RSATKICHINI ANIQLASH

**Maqsad:** shishaning nur sindirish ko'rsatkichini aniqlashni o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** yorug'lik manbayi, tirkishli to'siq, uchburchakli shisha prizma, ignalar, transportir.


### Ishni bajarish tartibi

1. Nur dastasi yo'liga uchburchakli shisha prizmani 73-rasmda ko'rsatilgandek joylashtiring. Prizmaning yuqori uchidagi  $\alpha$  burchakni yozib oling (bu burchak prizmaga yozilgan bo'ladi).

2. Prizma qo'yilganda nur dastasi  $O$  nuqtada sinadi va o'z yo'lini o'zgartirib,  $\gamma$  burchakka buriladi. Nurning singan yo'lini ignalar bilan belgilang va  $\gamma$  burchakni transportir yordamida o'lchang.

3. Nur sindirish ko'rsatkichi  $n$  bo'lgan shisha prizmadan havoga o'tish holati uchun yorug'likning sinish qonunini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{1}{n} = \frac{\sin \alpha}{\sin \beta} = \frac{\sin \alpha}{\sin(\alpha + \gamma)} \quad (1) \quad \text{yoki} \quad n = \frac{\sin(\alpha + \gamma)}{\sin \alpha} \quad (2)$$



73-rasm.

bunda  $\alpha$  – shisha va havo chegarasiga nuring tushish burchagi bo'lib, uning kattaligi prizmaning yuqorigi burchagiga teng.  $\alpha$  va  $\gamma$  ning o'lchanigan qiymatini (2) formulaga qo'yib, berilgan shishaning nur sindirish ko'rsatkichini aniqlang.

4. Tajriba jarayonidagi o'lchash va hisoblash natijalarini jadvalga yozing.

Nº	$\alpha$	$\sin \alpha$	$\gamma$	$\sin(\alpha + \gamma)$	$n$	$n_{o'ret}$
1						
2						

1. Tajribadagi yorug'lik nurining yo'lini tahlil qiling, tushish va sinish burchaklarini ko'rsating.

2. Tajriba jarayonini va natijalarini tahlil qiling.